BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FOZILOVA O‘G‘ILOY FAYOZ QIZI

O‘ZBEK ADABIYOTIDA NAVRO‘Z TALQINI

10.00.14 – XX asr adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 821.512.133.0:398.332.416

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Fozilova O‘g‘iloy Fayoz qizi
O‘zbek adabiyotida Navro‘z talqini.....5

Фозилова Угилой Фаёз кизи
Интерпретация Навруз в узбекской литературе….....….21

Fozilova Ugiloy Faioz kizi
Interpretation of Navruz in Uzbek literature……..43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..48

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FOZILOVA O‘G‘ILOY FAYOZ QIZI

O‘ZBEK ADABIYOTIDA NAVRO‘Z TALQINI

10.00.14 – XX asr adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD.Fil/3371 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universitetining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**O‘rayeva Darmon Saidaxmedovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Sharipova Laylo Frunzeyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
	Sariyev San’arjon Matchonboyevich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «21» noyabr soat 930 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14, faks: (+99865221-29-14, Email: buxdu@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D/1105 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14, faks: (+99865221-29-14, Email: buxdu@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «9» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «9» noyabr dagi 26-20 - raqamli reestr bayonnomasi).

O.M.Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.R.Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q.Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (Dsc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Barcha xalqlar orasida tabiatdagi bahoriy o‘zgarishlarning inson ruhiyati va mehnat sharoitiga ta’sirini qayd etuvchi marosim, urf-odat hamda ular bilan bog‘liq tasavvur-tushunchalarni o‘zida badiiy ifoda etgan folklor namunalari tizimi shakllangan bo‘lib, asta-sekin ularga xos poetik talqinlar yozma adabiyotda ham davom etgani kuzatiladi. Sharq xalqlari adabiyotida Navro‘z bilan aloqador udumlar, axloqiy-estetik qarashlarning shunday badiiy talqini epik tafakkurning poetik takomil xususiyatlarini, tarixiy-folkloriylikdan adabiy-tarixiy jarayonga ko‘chish tamoyillarini aniqlashga xizmat qilishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon adabiyotshunosligida tabiat va inson birligi, kishilarning fasllarga munosabati aks etgan asarlarni o‘rganishga hamisha alohida diqqat qaratib kelingan. Faqat bunda hodisaga har bir xalqning milliy dunyoqarashi va madaniyati, turmush tarzi, ijtimoiy-axloqiy qarashlari nuqtayi nazaridan yondashiladi. O‘zbek adabiyotida Navro‘z talqini og‘zaki va yozma ijodda qadimdan o‘ziga xos identifikator sifatida talqin qilib kelinmoqda. Uning folklordan mumtoz hamda zamonaviy adabiyotga ham o‘tish asoslarini, badiiy-estetik talqinidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash lozimdir. Bunda Navro‘zning milliy ruhiyatni, xalq hayotidagi yangilanishlarni ifodalashda shoir va yozuvchilar tomonidan mavzu, badiiy obraz, metaforik yoki ramziy ifoda vositasi sifatida tanlanish asoslarini aniqlash adabiyot tarixi, nazariyasi, adabiy tanqidchilik oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Navro‘zning yozma adabiyotda badiiy talqin etilishiga xos xususiyatlarni uning folklordagi talqini bilan qiyoslab o‘rganish orqali og‘zaki va yozma ijod rivojlanishidagi bog‘liq qirralarni ochish imkonini kengaytiradi.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilishida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo‘lmoqdaki, zotan bu jamiyatda umumxalq milliy bayram – Navro‘zning o‘rni va rolini yanada mustahkamlash, unga xos poklanish va yangilanish jabhalarini barqarorlashtirish sari yo‘l ochadi. Avvalo, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram sifatida e’tirof etilgan Navro‘zi olamning ko‘p millatli jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini, birdamlik ruhini mustahkamlashdagi beqiyos o‘rni va ahamiyatini hisobga olib”,[1] davlatchiligimiz tarixida o‘zining beqiyos ma’naviy jihatlari bilan hamisha alohida e’tiborda bo‘lgan Navro‘z haqida barcha davrlarda ko‘plab ilmiy-tarixiy va badiiy asarlar yaratilgan va milliy merosimizning o‘lmas durdonalariga aylangan. Bu esa, adabiyotda ham uning tarixiy-badiiy talqinini o‘rganishga da’vatlantiradi. Ulardan Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy strategik shartlarini bajarishda foydalanish mumkin. Bu jarayonda boshlangan ma’naviy tiklanish jarayoni o‘zbek adabiyotida Navro‘z talqini bilan bog‘liq umumbashariy g‘oyalar uyg‘unligini, uning qadimdan talqin qilib kelinayotganiga xos tipologik xususiyatlarni chuqur ochish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagi “Navro‘z

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 21-fevraldagi “Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risidagi PQ-68-sonli qarori” matnidan.

umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risidagi PQ-68-sonli qarori”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Navro‘z qadimiy, sharqona bayram. Shu sababli u haqda Narshaxiy, Abu Rayhon Beruniyning tarixiy kitoblarida, “Navro‘znoma”larda qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Navro‘z haqida ko‘pincha Sharq xalqlari, turkiy millatlar haqidagi etnografik, folklorshunoslik tadqiqotlarda o‘qish mumkin. Ammo ingliz etnografi va folklorshunosi J.J.Freyzerning 12 tomdan iborat “Oltin butoq” (“The Golden Bough” asarida ilk dunyoqarash shakllari sifatida magiya, mifologiya, totemizm, animizm, tabu kabi diniy qarashlar o‘rganilar ekan, avvalo, ularning folklordagi talqiniga e’tibor qaratiladi. Shundan so‘ng ularning turli xalqlar urf-odatlari bilan bog‘liqligi xususida so‘z yuritiladiki, ular orasida mavsumiy bayramlar genezisi va an’anaviyligiga ham munosabat bildirilgan[2].2000-yilda Buxoro folklori va etnografiyasini o‘rganishga qiziqib tashrif buyurgan Merilin Petersen “Treasury of Uzbek Legends and Lore” (“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va afsonalari xazinasi”) kitobini tayyorlab, unda turkiy xalqlarning milliy bayrami – Navro‘zning paydo bo‘lishi haqidagi afsonalar, aytiladigan qo‘shiqlar, tayyorlanadigan taomlar, kiyiladigan kiyimlar, jiro qilinadigan xalq o‘yinlari haqidagi ma’lumotlarni “The Holiday of Navruz” (“Navro‘z bayrami”) bobida keltirgan. Shu bilan birga bobdan “Songs of Navruz” (“Navro‘z qo‘shiqlari”), “Foods of Navruz” (“Navro‘z taomlari”), “How to Make Sumalak” (“Sumalak qanday tayyorlanadi?”), “Song of Sumalak” (“Sumalak qo‘shiqlari”), “The Poems Among the Boys and Girls” (“Bahru bayt”) berib

[2] Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. – Т., 2022. – 166 б.; Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. Т.1. – Т.: Фан, 1968. – 468 б.; Умар Хайём. Наврўзнома. – Т.: Меҳнат, 1990. – 79 б.

o‘tgan. Turk folklorshunosligida Abdulloh Shengul, Xeybər Göyyallı maqolalar e’lon qilgani ma’lum[3].

O‘zbek folklorshunosligida Navro‘z haqida M.Jo‘rayev bir qator muhim ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surgan, u to‘g‘risidagi xalq qo‘shiqlarini to‘plab e’lon qilgan. Musaqulov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, R.Qosimovalarning maqolalari chop etilgan. O.Safarov Navro‘zning oilaviy marosim sifatidagi ma’naviy asoslari xususida so‘z yuritgan. L.To‘rayevaning dissertatsiyasida Navro‘z dehqonlar bayrami sifatida tavsiflangan. O‘zbek adabiyotshunosligida N.Jumaxo‘ja, Sultonmurod Olim. D.O‘rayeva, M.Rajabova, R.Qosimova maqolalari ham mavjud. Navro‘zning o‘tkazilishi, an’anaviyligi masalasiga o‘zbek udumshunoslari ham alohida e’tibor bilan qaraydilar. Jumladan, bu to‘g‘rida G.P. Snesarev, G‘.G‘afurov, O.Bo‘riyev, U.Qoraboyev, Mahmud Sattor, A.Ashirov kitoblarida ayrim muhim ma’lumotlar keltirilgan[4].

Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotida Navro‘z talqini maxsus o‘rganilgan emas. Uning genezisi, badiiy tasvir va talqinida an’anaviylik hamda poetik takomil belgilari, yeortopoetonim sifatidagi estetik vazifalarini aniqlash adabiyotshunosligimizdagi muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat

---

[3] Фрейзер Дж. Дж. Золотая ветвь: Исследования магии и религии / пер. с англ. М. К. Рыклин — Москва: Академический Проект, 2012. – 854 с.; Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000. Abdulloh Shengul. Turk madaniyatida Navro’z va Anadoluda Navro’z bayramlari // Turk dunyosi tili va adabiyoti jurnali. – 26-son. – B.62; Xeybər Göyyallı. Novruz**:** Genezisi, tarixi, transformasiyalari və mərasimləri. – Baki, 2015. – B. 23-24.

[4] Наврўз. (Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар). Тузувчилар: Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992. – 100 б.; Жўраев М. “Қизил гул” сайлининг этнофольклористик таҳлилига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2003. – № 4. – Б.13-19; Наврўз байрами. – Т.: Фан, 2009. – 230 б.; Жўраев М. Наврўз қўшиқлари. (Наврўз байрами ва баҳорий удумлар билан боғлиқ ўзбек халқ қўшиқлари). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 167 б.; Мусақулов А. Бойчечак – наврўз гули // Соғлом авлод учун. – 2003. – №3. – Б.3; Наврўз нашидаси. Баҳор ҳақидаги мақол-айтим, қўшиқ ва шеърлар. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари Ж.Эшонқулов, Ш.Турдимов. – Т.: Фан, 2009. – 260 б.; Турдимов Ш.Г. Наврўз – қадимий байрам. – Гулчеҳралар, 2007, 18 март; Турдимов Ш.Г., Эшонқулов Ж. Наврўз қўшиқлари. Тадқиқот мажмуа. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 136 б.; Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: Маънавият, 1998. – 110 б.; Мусақулов А. Бойчечак – наврўз гули // Соғлом авлод учун. – 2003. – №3. – Б.3; Наврўз нашидаси. Баҳор ҳақидаги мақол-айтим, қўшиқ ва шеърлар. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари Ж.Эшонқулов, Ш.Турдимов. – Т.: Фан, 2009. – 260 б.; Турдимов Ш.Г. Наврўз – қадимий байрам. – Гулчеҳралар, 2007, 18 март; Турдимов Ш.Г., Эшонқулов Ж. Наврўз қўшиқлари. Тадқиқот мажмуа. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 136 б.; Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: Маънавият, 1998. – 110 б.; Тўраева Л.О. Ўзбек фольклорида деҳқон образи ва деҳқончилик талқини: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2023. – 138 б.; Жумахўжа Н. Наврўз ва манзур малоҳати. – “Туркистон” газетаси. – 1993. – 20 март. Султонмурод Олим. Байрамларимиз. – Т.: Маънавият, 2008. – 200 б.; Ўраева Д. Огаҳий ижодида баҳор ва Наврўз талқини / Muhammad Rizo Erniyozbek o`li Ogafih tavalludining 210 yilligiga bag`ishlangan “Ogahiy – shoir, muarrix, tarjimon” mavzusida respublika miqyosida o`tkazilgan ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Urganch, 16-17 dekabr, 2019 yil. – B.48-51; М. Ражабова Алишер Навоий ижодида фолклор жанр ва образлар стилизацияси. Филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Б., 2021. - 285б. Қосимова Р. Наврўз анъаналарининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. // Тилнинг лексик-семантик тизими, қиёсий-типологик изланишлар ва адабиётшунослик муаммолари. Материаллар тўплами IV. – Тошкент: “Муҳарир” нашриёти, 2011. – Б.147-149.; Снесарев Г.П. Релекты досумульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М., 1969. – С. 240-265; Ғафуров Ғ. Удумларда – халқ қалби. – Т.: Ёш гвардия, 1986. – Б.171-186; Бўриев О. Асрлар бағридан келган шодиёна // Наврўзи олам бугун. – Тошкент. – Гулистон. – 1989. – Б.11-12; Бўриев О. Наврўз тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1990. – 64 с.; Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 190 б.; Қорабоев У. Ҳар тунинг қадр ўлибон, ҳар кунинг ўлсун Наврўз. – “Мулоқот” газетаси. – 1991. – №3; Саттор М. Ўзбек удумлари. – Т.: Фан, 1993. – 220 б.; Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.

universitetining “O‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek adabiyotida shoir va yozuvchilar tomonidan qadimdan hozirgacha Navro‘zni talqin etish badiiy-estetik tajribasining taraqqiyot xususiyatlarini, poetik jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- yozma adabiyot estetik tajribalarida Navro‘zni poetik talqin qilishning ijtimoiy-falsafiy, badiiy asoslari, tarixiy bosqichlari va tamoyillarini aniqlash;
- qadimgi davr o‘zbek adabiyoti namunalarida Navro‘zga tarixiy-ijtimoiy munosabatning badiiy talqinlarda aks ettirilishiga xos indikator xususiyatlarni ochib berish;
- mumtoz adabiyotda Navro‘z talqini va tasviriga bag‘ishlangan g‘azal hamda dostonlar poetikasini asoslash;
- jadid adabiyotida Navro‘zdan yangi davr va yangicha muhit ramzini ifodalash uchun parallel manba sifatida foydalanilganligini dalillash;
- zamonaviy ijodkorlarning Navro‘z bilan bog‘liq milliy ruhiyatni goh she’riy, goh nasriy ko‘rinishda ifodalashdagi badiiy mahoratini oydinlashtirish;
- hozirgi davrda Navro‘z talqinini berishda shoir-u ijodkorlarning shakl va mazmun uyg‘unligini ta’minlashdagi poetik uslubi, psixologik yondashuvi belgilarini ko‘rsatish.

Tadqiqotning obyekti o‘zbek adabiyotida Navro‘z haqida yaratilgan mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi doston, navro‘znomalar, she’rlar, g‘azal, ruboiy, masnaviy, to‘rtlik, hikoya, qissa, roman, drama janridagi asarlar tanlandi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek ijodkorlari asarlarida Navro‘z talqini, uning davriy bosqichlari, tipologik xususiyatlari, individual uslub va badiiy mahorat belgilari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, analitik tahlil hamda qisman etnofolkloristik, semiotik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- o‘zbek adabiyotida Navro‘z talqini tarixiy-folkloriy jarayondan asta-sekin adabiy-tarixiy jarayonga ham ko‘chib, qadimdan hozirgacha og‘zaki va yozma badiiy asarlarda identifikator bo‘lib kelayotgani, uni madh etish poetik an’anaga aylangani, takomil bosqichlari aniqlangan;
- Navro‘z mavzusining yozma adabiyotga ko‘chishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-ruhiy omillar, bunda folklor, tarixiy va adabiy manbalar, “Avesto”ning o‘rni, Navro‘zning lirik, nasriy, dramatik janrlar kesimidagi talqin xususiyatlari an’anaviylik va poetik tadrijiylik asosida dalillangan;
- yozma adabiyotda yaratilgan “Navro‘znoma”lar, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z” dostonida Navro‘z obrazining majoziy-estetik talqini, mumtoz, ma’rifatparvar shoirlar g‘azaliyoti, qasidanavisligida, jadid hamda zamonaviy shoirlar ijodida bu mavzuga ijtimoiy-estetik munosabat kuchaygani, hukmron tuzum mafkurasi, ijodkor dunyoqarashining unga ta’siri asoslangan;
- Navro‘zni Vatan va inson taqdiri, istiqlol bilan qo‘shib kuylash, uni suyukli yor yoki beg‘ubor bolaga tenglashtirish, mustaqillikka erishgan jamiyatdagi yangi o‘zgarishlar mohiyatini ochishda Navro‘zdan parallel manba sifatida foydalanish,

uni realistik va milliy bo‘yoqlarda aks ettirishda yangi ko‘chimlardan foydalanish mahorati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- o‘zbek adabiyotida Navro‘z talqiniga poetik munosabatning an’anaviyligi, tarixiy-axloqiy asoslari, ijtimoiy-ruhiy omillari, tadrijiy takomil belgilari aniqlangan;

- o‘zbek adabiyotining har bir tarixiy bosqichida Navro‘zning hukmron tuzum g‘oyasiga muvofiq tarzda o‘ziga xos badiiy talqin qilingani, ko‘pincha vatan va inson, jamiyat taqdiriga qo‘shib kuylangani asoslangan;

- adabiyotda Navro‘zga atalgan asarlarning turli janrlarda: (g‘azal, qasida, masnaviy, ruboiy, to‘rtlik, qutlov va bag‘ishlov she’r, roman, qissa, hikoya, drama kabi) yaratilgani, ularda fikr ifodasidagi badiiy o‘ziga xosliklar dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada muammoning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, analitik tahlil hamda qisman etnofolkloristik, semiotik kabi aniq yondashuv usullari, nazariy ma’lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, turli davrlarda yaratilgan o‘zbek adabiyoti namunalari o‘zaro qiyoslanishi asosida olingan natijalarning amaliyotda keng qo‘llanilganligi va tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek adabiyotida Navro‘zga ijtimoiy-axloqiy munosabat aks ettirilgan asarlardagi umumiy poetik jihatlarni aniqlash orqali unga xos g‘oyaviy-badiiy taraqqiyot xususiyatlarini aniqlashtirish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarining filologiya yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Milliy uyg‘onish davri adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” singari fanlaridan ma’ruza, maxsus kurs va seminarlar o‘tishda, shu bilan birga, o‘rta ta`lim maktablarida adabiyot darslarini o‘qitishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. O‘zbek adabiyotida Navro‘z talqinini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek adabiyotida Navro‘z talqini folklordan yozma adabiyotga ham ko‘chgani, og‘zaki va yozma badiiy asarlarda uni madh etish poetik an’anaga aylangani, davr mafkurasi va e’tiqodiy qarashlari asosida talqin qilib kelingani aniqlangan ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari, undagi nazariy xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2024-yilda bajarilgan AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (№ 5342 raqamli ma’lumotnomasi. 08.09.2025). Natijada o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy mavzular e’tirofi ilmiy-nazariy jihatdan mustahkamlangan;

Navro‘z atamasining Alisher Navoiy ijodidagi o’rni hamda u bilan bog’liq baytlarning takomiliga ta’sir etgan omillar, shu asosda ijodiy ta’sir va individual uslub qirralari hamda Alisher Navoiyning “Tarixi muluku ajam” asaridagi Navro‘z bilan bog‘liq tushunchalar, uning o‘ziga xos xususiyatlari kabi jihatlar yoritilgan ilmiy xulosalardan davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813. “Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimedia to‘plamini yaratish” nomli amaliy loyihasida foydalanilgan. Natijada,

Navoiy asarlaridagi Navro‘z bilan bog‘liq tushunchalar ilmiy-nazariy jihatdan mustahkamlangan;

“Navro‘znoma”lar, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z” dostonida Navro‘z obrazining majoziy-estetik talqini, mumtoz, ma’rifatparvar, jadid hamda zamonaviy shoirlar ijodida Navro‘z mavzusiga bag‘ishlangan g‘azal, masnaviy, ruboiy, to‘rtlik, tabiat va ijtimoiy lirikada, o‘zbek nasridagi roman, qissa, hikoyalarda unga ijtimoiy-estetik munosabat ifodasi dalillangan xulosalaridan Toshkent shahar “Mahalla” teleradiokanali “Bir asar tarixi” eshittirish mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Mahalla” teleradiokanalining 10.04.2025. 23-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan badiiy asarlar, jumladan, g‘azal, ruboiy, doston va she’rlarning taqdiri barcha davrlarda yurt va millat, kelajak avlod taqdiri bilan bog‘liqlikda talqin qilingani haqida teletomoshabinlarning chuqurroq ma’lumotga ega bo‘lishiga asos yaratilgan. Shuningdek, ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillar bilan boyitilib, ko‘rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan.

Navro‘zni Vatan va inson taqdiri, istiqboli hamda istiqloli bilan qo‘shib kuylash, mustaqillikka erishgan jamiyatdagi yangi o‘zgarishlar mohiyatini ochishda Navro‘z mavzusidan foydalanib, asar xalqchilligi, milliyligini realistik tarzda ochib berilgan fikr-mulohazalardan Surxandaryo viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazining “Xush kelding elimga, Navro‘z”, “Bobolardan qolgan meros”, “Navro‘z sayli yurtimda” kabi mavzulardagi tadbirlarning ssenariysini va ma’ruza matnini tayyorlashda foydalanilgan (Surxandaryo viloyat Ma’daniyat va ma’rifat markazining 01-09/50-sonli ma’lumotnomasi. 01.07.2025). Natijada viloyat aholisi o‘rtasida xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, madaniyatidan chuqur joy olgan ma’naviy javobgarlik, mas’ullik hissi haqidagi bilimlari kengaydi. Berilgan takliflar, tavsiya va xulosalar yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatimiz hisoblangan urf-odatlarga hurmat hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 5 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e`lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 170 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati,

amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek yozma adabiyotida navro‘zni madh etish an’anasining boshlanishi va tadriji”** deb nomlangan bo‘lib, to‘rt fasldan tarkib topgan. Ilk fasl ***“Navro‘z mavzusining yozma adabiyotga ham ko‘chishi va ilk talqin manbalari”*** deb atalgan. Navro‘z an’analari qadimdan xalqimiz turmushiga va ruhiyatiga chuqur singib ketganligi bois og‘zaki va yozma adabiyotimizda keng talqin etiladi. Adabiy an’analar tizimida Bahor madhi, Navro‘z tavsifi, u bilan bog‘liq urf-odatlarning kelib chiqish tarixidan so‘zlovchi qo‘shiqlar, afsona va rivoyatlar, ayrim tarixiy ma’lumotlar bizgacha, asosan, to‘rt tipdagi manbalar orqali yetib kelgan:

I.Folklor orqali. M.Jo‘rayevning “Navro‘z bayrami” kitobi shu shukuhli an’anaga oid maqolalardan tashkil topgan. Ana shu jihatiga ko‘ra, bu kitob o‘zbek xalq taqvimi haqida yaxlit ilmiy tasavvur hosil qiladi. Bundan tashqari, M.Jo‘rayev 2007-yilda o‘zbek xalqining shu bayram munosabati bilan yaratilgan va asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, bizgacha yetib kelgan qo‘shiqlari asosida “Navro‘z qo‘shiqlari” to‘plamini tuzgani ma’lum[5].

O‘zbek yozma adabiyotiga Navro‘z mavzusining kirib kelishi va poetik takomilga erishishiga xalqimizning og‘zaki ijodida Navro‘z haqida yaratilgan quyidagi manbalar asos bo‘lgan: 1. Navro‘z haqidagi taqvimiy miflar hamda o‘lib tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi asotirlar[6]. Bu miflarning katta qismi kosmik va antropogonik xususiyatga ega. 2. Navro‘z va bahor haqidagi mifologik afsonalar. 3. Navro‘z bilan bog‘liq xalq marosim qo‘shiqlari. 4. Navro‘z mavzusidagi lirik qo‘shiqlar va aytishuvlar.

II. Navro‘z tarixiga oid ma’lumotlar petrogliflar (qoyatosh suratlari) orqali. Buni Farg‘ona vodiysi tog‘li hududidagi Ko‘gart dovoni yaqinidagi Saymalitoshdan topilgan qoyatosh suratlari-petrogliflar dalillaydi[7].

III. Yozma tarixiy asarlar vositasida. Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitoblarida Navro‘z tarixiga oid muhim fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asarlarida bevosita Navro‘z va uning o‘lmas an’analari xususida e’tiborli ma’lumotlar keltirilgan.

IV. Yozma adabiy-badiiy asarlar asosida. Bu to‘g‘rida gapirishdan oldin Navro‘zning adabiyotdagi talqinini dastlab ikkiga bo‘lib aniqlashtirish lozim: **1. Navro‘zning folklor(xalq og‘zaki ijodi)dagi talqini. 2. Navro‘zning yozma adabiyotdagi talqini.** Ayni paytda Navro‘zning yozma adabiyotdagi talqini ham bir necha bosqichlarda namoyon bo‘ladi. Bular: **1.Navro‘zning mumtoz adabiyotda talqin qilinishi.** Bu an’ana Firdavsiyniig “Shohnoma”sidan boshlangani kuzatiladi[8]. Firdavsiyning Navro‘z an’analarini tarannum etgan

[5] Жўраев М. Наврўз қўшиқлари. (Наврўз байрами ва баҳорий удумлар билан боғлиқ ўзбек халқ қўшиқлари). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 167 б.

[6] Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.77.

[7] Бернштам А.Н. Наскальные изображения Саймали-Таш // Этнография. – 1952. – №2. – С.50-67.

[8] Фирдавсий, Абулқосим. Шоҳнома: сайланма / А. Фирдавсий: нашрга тайёрловчи ва насрий баёни таржимони Ҳ.Ҳомидий, масъул муҳаррир Ж.Муҳаммад. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон

satrlari ayricha diqqatga sazovor. Navro‘zga badiiy-estetik munosabat ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodida ham alohida ko‘zga tashlanadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonul lug‘otit-turk” asarida esa bahor madhiga bag‘ishlangan to‘rtlik shaklidagi qo‘shiqlarda Navro‘z so‘zi tilga olinmagan bo‘lsa-da, uni anglatuvchi “bahorning yuzi” birikmasi qo‘llanganiga guvoh bo‘lish mumkin.

2. Yangi, zamonaviy adabiyotda Navro‘zning ifodalanishi. 2009-yilda folklorshunoslar J.Eshonqulov bilan Sh.Turdimov hamkorlikda bahor haqidagi maqol-aytim, qo‘shiq va she’rlardan tartib berilgan “Navro‘z nashidasi” to‘plamidan Mahmud Koshg‘ariy, Rabg‘uziy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Furqat, Muqimiy kabi mumtoz she’riyat vakillari bilan bir qatorda zamonaviy lirika namoyandalarining ham Navro‘z va Bahor madhiga bag‘ishlangan she’riy asarlari o‘rin olgan.

Birinchi bobi ikkinchi fasli ***“Avesto” hamda tarixiy yozma manbalarda Navro‘z afsona va rivoyatlarining o‘rni”*** deb nomlangan. Qadimgi ajdodlarimiz e’tiqodicha hamda “Avesto”da bitilishicha, olamning yaratilishi Navro‘z kuniga to‘g’ri kelgan. Uning Farvardin Yasht va Yasna bo‘limlarida Navro‘z bayrami bilan bog‘liq marosimlar aks etgan.

Navro‘zda o‘qiladigan ibodat matnlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1. O‘liklar ruhiga ibodat. 2. Farvardinlarning himoyasini so‘rash. 3. Yangi yilni kutib olish. “Avesto” Navro‘zning tarixiy evolutsiya jarayonini hamda rivojlanish bosqichlarini o’rganadigan muhim yozma manbalardan biridir. Unga ko‘ra, Navro‘z insonlarning hayotiy kuzativ mahsuli hisoblangan[9].

Birinchi bobning uchinchi fasli ***“Navro‘zning lirik janrlar kesimidagi talqini”*** deb yuritilgan. Navro‘z haqida ko‘plab asarlar: alohida doston, qasida, g‘azal, masnaviy, ruboiy, she’r, to‘rtlik, qutlovlar, hikoya va romanlar, dramalar, ssenariylar yaratilganki, ularni dastlab uch turga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Qasida. Bunga Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida keltirilgan “Bahor” qasidasi misol bo‘la oladi. **2. G‘azal.** Navro‘zga bag‘ishlangan g‘azallar ham anchagina. Ular yozilish davriga qarab ikki xildir: **a) mumtoz g‘azallarda Navro‘z mavzusi; b) zamonaviy g‘azalchilikda Navro‘z mavzusi.** Bunday g‘azallarni sarlavhasiga qarab ikki guruhga bo‘lib o‘rgansa bo‘ladi: ***2.1. Navro‘z so‘zi sarlavhasida aks etgan g‘azallar.*** Vosit Sa’dulla ijodiga mansub “Navro‘z bilan” degan she’ri g‘azal janrida yozilgan bo‘lib, misralar so‘ngida “navro‘z bilan” so‘zlari radif sifatida keltirilgan. Bu g‘azal ramali musammani mahzuf vazniga to‘g‘ri keladi. ***2.2. Sarlavhada emas, sarlavha ostida navro‘zga bag‘ishlangani qayd etilgan g‘azallar.*** Vosit Sa’dullaning “Mahallamiz” g‘azalining ost sarlavhasida qavs ichida “(Navro‘z bayrami munosabati bilan)” degan sharh keltirib o‘tilgan. Shu sharh asosida uning Navro‘z bayramiga bag‘ishlanayotgani ta’kidlangan. **3.Masnaviy.** Bunga Charxiyning “Navro‘z sharafiga” deb nomlangan masnaviysini misol bo‘la oladi. U ikkilik ko‘rinishida baytma-bayt qofiyalantirilgan. **4. Ruboiylar.** Bahor (ko‘klam) va Navro‘zga xos tabiat o‘zgarishlarini madh etuvchi ruboiylar yozish an’anasi Umar Xayyomdan boshlangan. Shoirning bunday ruboiylari fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga ham

---

Миллий кутубхонаси нашриёти. 2012. – 188 б.; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1965. – Б.115.

[9] Jo‘rayev M., O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B.140.

o‘girilgan. Ulardan birida shoir ko‘klamni, Navro‘zni hamdamli kun sifatida tarannum etib, uning nashidasidan bahramand bo‘lishga chorlaydi. Shu tariqa ruboiyda insonlarga vaqtning o‘tkinchiligi, uni qadrlash lozimligi uqtirilgan. Shoir ruboiylarida lola, yog‘ingar ko‘klam, ko‘katlar obrazi bahor va navro‘z ayyomining analoglari sifatida talqin qilinib, shu tariqa bahor peyzaji tasvir etilgan. Charxiy ijodida maxsus “Navro‘z ruboiylari” mavjud[10]. Ularning soni 9 ta.

5. She’rlar. Zamonaviy she’riyatda Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda”, G‘afur G‘ulomning “Bahor ohanglari”, Zulfiyaning “O‘riklar gullar...”, “Na go‘zal damlar bu!”, Shuhratning “Bahor keldi gul sochib har yon”, Abdulla Oripovning “Bahor”, “Bahor shamoli”, “Bahor nashidasi”, “Bahor tilaklari”, “Navro‘z”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi”, “Bahor”, Erkin Vohidovning “Navro‘z nashidasi”, Jumaniyoz Jabborovning “Navro‘z qadaming gulga to‘lib, shod kelavergil”, “Hamal keldi”, “Zilollaringdan”, To‘ra Sulaymonning “Yeru samovatda Navro‘z nafasi”, Halima Xudoyberdiyevaning “Navro‘z”, “Sog‘inish”, Shavkat Rahmonning “Erib bitdi poyonsiz qorlar”, Usmon Azimning “O!.. Olamdan to‘kildi gunoh!”, Xurshid Davronning “Bahor”, “Bahor she’rlari”, “Bahor kapalaklari”, Muhammad Yusufning “Ko‘klamoyim”, Sirojiddin Sayyidning “Navro‘z qo‘shig‘i”, “Navro‘zona”, Iqbol Mirzoning “Navro‘zguli”, Mirzo Kenjabekning “Qutlov”, O‘roz Haydarning “Navro‘z kechasi” kabi she’rlari Navro‘z va bahorni madh etishga qaratilgani bilan e’tiborni tortadi.

6. To‘rtliklar. Toshpo‘lat Ahmad navro‘zga bag‘ishlab to‘rtliklar yaratgan shoirlardan biridir. **7. Qutlov she’rlar.** Mirzo Kenjabekning “Qutlov” she’ri Navro’z mavzusiga bag’ishlangan she’rlardan biri bo‘lib, bayramona ruhni ko’tarinki kayfiyatda yoritib bergan.

Birinchi bobning to‘rtinchi fasli ***“Nasr va dramada Navro‘z mavzusi”*** deb atalgan. Navro‘z mavzusi nasrda bitilgan asarlarda ikki xil yoritilgan: a) bilvosita, ya’ni asar ichida Navro‘zga xos tavsif, unga oid qaysi bir epizodik voqelik tasvirlangan; b) bevosita Navro‘z sarlavhali asarlar yozilgan. Navro‘z mavzusi bo‘yicha chizgilar keltirilgan asarlarga Oybekning “Qutlug‘ qon”, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, Asqad Muxtorning “Opa-singillar” romanlari misol bo‘la oladi. Ularda Navro‘z **xalq birligi, uyg‘onishi va ruhiy yangilanishining timsoli, madaniy va tarixiy xotira, o‘zlikni saqlab qolish vositasi sifatida tasvirlangan.**

Shukur Xolmirzayevning “Bahor”, “Bahor o’tdi”, “Navro’z” kabi hikoyalari mavjud. Uning “Navro‘z, Navro‘z” hikoyasida ikki nafar yirik olim o‘rtasida janjal kelib chiqadi. Ularning atrofidagilar esa navro‘zning azaliy odatlaridan biri sanalgan o‘zaro urushganlarning yarashishi lozimligini inobatga olib, ularni bir-biri bilan yarashtirib qo‘ymoqchi bo‘lishadi. Hikoyaning nomi bejizga Navro‘z emas. Undagi voqealar aynan Navro‘z arafasida yoki Navro‘z kunlari bo‘lib o‘tadi. Qahramon ichki iztirobda, yolg‘iz, mayus bo‘lsa-da, tabiatdagi uyg‘onish va yangilanish uni ham ruhiy jihatdan uyg‘otadi. Bu – Navro‘zning ramziy ma’nosi: qayta tug‘ilish, yangilanish, umid va tiriklik bilan bog‘liq. Muallif Navro‘z ruhi bilan kontrast yaratish orqali jamiyatdagi muammolarni ko‘rsatgan.

Nazir Safarovning “Navro‘z” (1973) romani [11] o‘tgan asrning 70-yillar adabiyotida sezilarli voqea bo‘lgan. U adibning “Ko‘rgan-kechirganlarim”

[10] Чархий. Наврўз рубоийлари. – Б.105-106.
[11] Сафаров Н. Наврўз. Роман. – Тошкент, 1973.

trilogiyasining ikkinchi kitobi sifatida yuzaga kelgan, shuning uchun avtobiografik mohiyat kasb etadi. Unda adib tug‘ilib o‘sgan Jizzax hayoti, bu yerda yashovchi xalqning ayanchli qismati Nazirqul nigohi bilan tasvirlangan. Asarda ochlik dahshati ko‘rsatib berilgan. Nazir Safarov o‘z davrida yuz bergan inqilobiy o‘zgarishlarni yaxshilikka yo‘ygan. Uni o‘z davri kishisi sifatida tushunib, talqin qilgan va sho‘rolik tuzumini Navro‘zga qiyoslamoqchi bo‘lib, asarini “Navro‘z” nomi bilan atagan. “Navro‘z” romani Eduard Arbenov tomonidan rus tiliga ham o‘girilgan va 1984-yilda chop etilgan. Roman haqida I.G‘afurov shunday yozgan: “Bu asarning qimmati shundaki, ular chuqur ibrat ruhi bilan sug‘orilgan. U bugunning kishilarini chuqur o‘ylantirmog‘i kerak. Davlatiga esi og‘ib, oldi-ketiga qaramay daranglama to‘y qilayotganlar, mehnat bilan topilgan ob-osh qanday bo‘lishini bilmagan takasaltanglar, bir buxanka non qancha turishini hali bir marta ham eshitmagan, o‘zlarini turli ohangga solib, hamma narsadan norozi bo‘lib, lekin biron foydali ishni qoyil qilolmayotganlar, dorilomon kunlarning qadri va qimmatini o‘lcholmayotganlar bu asarlardan o‘zlariga katta hayot darsi olgan bo‘lardilar deb ishonaman...”[12].

Dramatik asarlarda ham Navro‘z mavzusi qalamga olingan. XX asr o‘zbek dramaturgiyasida Hamza Hakimzoda Niyoziy Navro‘z bayramini birinchi bo‘lib ijtimoiy va ma’rifiy g‘oya bilan bog‘lagan dramaturgdir. Hamzaning “Bayram” (1922), Sanjar Jabborovning “Navro‘z bazmi” (sahna ko‘rinishi, XX asr oxiri) kabi dramatik asarlarida Navro’z tushunchasini yoritishga e’tibor qaratilgan.

Publitsistikada O.Yoqubovning “Navro‘z arafasidagi o‘ylar” maqolasi ko‘pchilik o‘quvchilarning e’tiboriga sazovor bo‘lgan.

Navro‘z haqidagi ssenariylar ham mavjud. Bunga Toshpo‘lat Ahmad ssenariylarini misol qilish mumkin. U “Navro‘z – istiqlol va do‘stlik bayrami” deb nomlangan[13]. Matnning ostida qavs ichida “Buxoro shahridagi Abu Ali ibn Sino nomi bilan yuritiluvchi madaniyat saroyi maydonida bo’lib o‘tgan teatrlashtirilgan tomosha ssenariysi” degan izoh keltirilgan. Shoir ssenariyda Bahoroy, Bunyod oqin, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy siymolarini ham aks ettirgan. Nasriddin, Dehqon bobo, ayol obrazlaridan foydalangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Mumtoz va jadid adabiyotida navro‘z talqinidagi an’anaviylik va o‘ziga xoslik”** deb nomlangan bo‘lib, u ham to‘rt fasldan iborat. Uning ilk fasli ***“Navro‘znoma”lar yaratish an’anasi”*** mavzusiga bag‘ishlangan. Yozma adabiyotda “Navro‘znoma” asarlar yaratish tajribasi ham amal qilgan. Uning ilk namunasi fors-tojik adabiyotida Umar Xayyom taxallusi bilan ijod etgan G‘iyosiddin unvoni sohibi Abdulfath Umar ibn Ibrohim – Xayomiy Nishopiriy (1048-1132) qalamiga mansub. Kitobning o‘zbekcha tarjimasiga Asad Samad tomonidan “Umar Xayyom Navro‘zni muborakbod etadi” sarlavhasi bilan yozilgan so‘zboshisida aytilishicha, uni muallif Malikshoh vorislarini u taklif qilgan rasadxonani bitirish ishiga da’vat qilish maqsadida yozgan va unda burungi o‘tgan podsholarning olimlarga qilgan homiyliklariga ataylab ishora qilishni ko‘zda tutgan. Shuningdek, “Navro‘znoma” risolasida Quyosh taqvimining tarixi, Navro‘z bayrami bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p

[12] Ғафуров И. – “Ўзбекистон маданияти” газетаси. – 1973 йил. – 18 февраль.

[13] Тошпўлат Аҳмад. Наврўзингдан айланай. (шеърлар, қўшиқлар, ғазаллар. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2010. – Б.97-136.

odatlar, afsona va rivoyatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ular orqali esa hozirgi zamonda o‘tayotgan Navro‘z bayrami bilan Umar Xayyom talqin qilayotgan davrdagi Navro‘z bayrami orasida ma’lum darajada muayyan farqlar mavjudligini bilib olish mumkin[14]. Mumtoz adabiyot an’analariga binoan Umar Xayyom o‘z “Navro‘znoma” risolasini “Mehribon va yorlaquvchi Ollohning nomi bilan” deb hamdu sano bilan boshlagan. Shundan so‘ng “Navro‘znoma kitobining boshlanishi” deya, “Bu kitobda Navro‘z haqidagi haqiqat, Ajam podsholari davrida u qaysi kunda bo‘lgani, qaysi podshoh joriy qilgani va nega uni nishonlashlari hamda podshohlarning boshqa odatlari, shuningdek, ularning barcha ishlarda tutgan yo‘llari ko‘rsatiladi” deyiladi[15].

“Navro‘znoma”da xalq e’tiqodlari, urf-odatlari, qadimiy afsonalar va rivoyatlar bilan bog‘liq badiiy parcha va ifodalar ham alohida o‘rin egallagan. Bu esa ushbu asar o‘zida nafaqat yozma adabiyot, balki og‘zaki xalq ijodi an’analarini ham saqlab qolganligidan darak beradi.

Xoja Ali Hakim at-Termiziyning “Navro‘znoma”sida Navro’z haftaning qaysi kunida kirib kelsa, nimalar kutilishi haqidagi qarashlar keltirilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli ***“Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z” dostonida Navro‘z obrazi”*** deb nomlangan. Haydar Xorazmiy 1411-yilda Sulton Iskandar farmoni bilan “Gul va Navro‘z” dostonini yozgan. U muhabbat, sadoqat va go‘zallik haqida so‘zlaydi. Dostonda shoir o‘zining tabiat, jamiyat va shaxs uyg‘unligi haqidagi falsafiy qarashlarini an’anaviy timsollar asosida asar g‘oyasiga singdirib, o‘z davr voqealarini majoziy tarzda yuksak mahorat bilan badiiy ifodalay olgan. Bunda shoir Navro‘z timsolini markaziy o‘ringa qo‘yib, u orqali bahorning, Gulni esa tabiatning ramzi sifatida tasvirlaydi. Ma’lumki, “Gul va Navro’z” dostoni ko‘p vaqtlar shoir Mavlono Lutfiy qalamiga mansub deb o’rganib kelindi[16]. Biroq Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” asarida uning Haydar Xorazmiyga tegishli ekanligi bildirib o‘tilgan.

Haydar Xorazmiy “Gul va Navro‘z” dostonida Navro‘zni intiq kutilgan farzand timsolida gavdalantirgan. Bu bilan shoir xalqning Navro‘zni intiqlik bilan kutishiga ishora qilgan. Asarning muqaddimasi Navshod elining podshosi shoh Farruhning farzandtalabligi bilan boshlanadi. Demak, Xorazmiy xalq og’zaki ijodiga murojaat qilib, o’z dostonini xalq ertak va dostonlaridagi kabi befarzandlik motivi bilan bog’lagan. Shuningdek, shahzoda Navro’zning tili chiqar-chiqmas hunar egallash motivi ham an’anaviy motivlardan biridir. Yoki sharq xalqlarining og’zaki hamda yozma adabiyotida, odatda, oshiq o’z yorini tushida yoki ko’zguda ko’rish motivi mavjud. “Gul va Navro’z” dostonida ham shahzoda Navro’z chog’irda o’z aksini ko’rib sevib qoladi. Chog’irning ta’sirida uyquga ketganda esa tushida Farxor podshosi Mushkinning qizi Gulni ko’rib, unga oshiq bo’lib qoladi. Dostonda Navro’z Gulni tushida ko’rgach, uning ishqida ko’p o’rtanadi va ko’rgan tushini ta’bir qildiradi[17]. O’z yorining visoli ilinjida yurgan Navro’z kunlarning birida bir karvonga duch keladi va karvondagilar bilan tanishish chog’ida Gulning xabarini topadi.

---

[14] Қаранг: Асрор Самад. Umar Xayyom Navro‘zni muborakbod etadi // Умар Хаём. Наврўзнома. – Тошкент: Меҳнат, 1990. – Б.8-9.

[15] Умар Хаём. Наврўзнома. – Тошкент: Меҳнат, 1990. – Б.10-11.

[16] Лутфий. Гул ва Наврўз. – Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960.

[17] Ўша манба. – Б. 7.

Navroʻz va Gulga Bulbul ularga vositachilik qiladi. Navroʻzning Gulga boʻlgan muhabbati dostonda alohida tasvirlarda berilgan. Yana unda Yaldo (eng sovuq, uzun, qorongʻu kecha ramzi), Bahman (eng ayozli kun ramzi), Shayx Najdiy (yerning baland qismi, toʻsiq ramzi) Navroʻz va Gul yoʻliga gʻov boʻlishga urinishadi. Biroq Navroʻz va Gulning topishishiga ular gʻov boʻla olmaydilar. Bu bilan shoir tabiatda vaqtning aylanishini oʻziga xos uslubda badiiy tasvirlaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli ***"Navroʻzning mumtoz shoirlar ijodidagi gʻoyaviy-badiiy tadriji"*** sarlavhasi bilan berilgan. Navroʻz nomini ilk bor oʻz lirik asarida tilga olgan shoir Xorazmiy boʻlib, uning "Muhabbatnoma"sida yor madhi uchun "yuzing navroʻz" tashbehi qoʻllanilgan. Shuningdek, shoir koʻklamdan, Navroʻz boshlanishidan darak beruvchi shunday satrlarni keltirgan:

Qaro tuproqdin sunbul toʻratti,
Tikanlar orasinda gul toʻratti.

Qora tuproqdan sunbul unib chiqishi, tikanlar orasida gul paydo boʻlishi koʻklamdan darak beruvchi tabiat hodisasi – Olloh moʻjizasi. Shu bois mutasavvuf shoirlar tabiat goʻzalligini ularning yaratuvchi bilan bogʻlaydilar.

Navroʻz mavzusiga bagʻishlab yozilgan ilk gʻazal Nosiriddin Rabgʻuziy ijodida uchraydi. Uning ilk misralaridayoq Hamal, Navroʻz soʻzlari qoʻllangan:

Kun hamalga kirdi esa keldi olam navroʻzi,
Kechdi bahman, zamharir qish, qolmadi qori, buzi.

Ushbu baytda bahor (uning hamal, navroʻz kabi alomatlari) hamda qish (bahman, qor, muz singari analoglari) orqali oʻzaro qarshilantirilayotgan boʻlsa, navbatdagi baytda tashxis (jonlantirish) san'ati yordamida qishda oʻlgan tabiatning bahorda qayta tirilishi hamda yer yuzuning bezanishi toʻgʻrisida soʻz yuritilib, poetik tasvir kuchaytirib borilgan. Gʻazalda Navroʻz belgilariga aylangan: yoqimli bahor shamoli, dov-daraxtlarning kurtak yoyishi, qir-adirlarning qip-qizil lola-yu lolaqizgʻaldoqlarga burkanishi, qishda uzoq issiq oʻlkalarga uchib ketgan turna, gʻoz, oʻrdak, toʻti, qumri, bulbul, qaldirgʻoch kabilarning qaytishi haqida birma-bir poetik tadrij asosida kuylangan. Rabgʻuziyning Bahor va Navroʻz haqidagi ushbu gʻazali mavsumiy lirikaning goʻzal namunasi sifatida alohida ajralib turadi. Gʻazal baytlarda yil burjlari nomi ham tilga olib oʻtilgan.

Mumtoz gʻazaliyotda Alisher Navoiy tomonidan Navroʻz haqida yozilgan baytlar mavjud. Ularda shoir Navroʻz, Navroʻz bayrami, bahor faslini yuksak kayfiyatda madh etgani kuzatiladi. Shoirning "Har tunung qadr oʻlubon, har kuning oʻlsun Navroʻz!" misrasi allaqachon shoh bayt yoki adabiy olqish darajasiga koʻtarilib ulgurgan.

Ikkinchi bobning toʻrtinchi fasli ***"Ma'rifatparvar va jadid shoirlar ijodida Navroʻz mavzusiga ijtimoiy-estetik munosabat"*** deb sarlavhalangan. Navroʻz barcha davrlarda ezgu ishlarga undash vositasi sifatida qadr topdi. Ana shu sabab barcha davr ma'rifatparlari va taraqqiyparvar ijodkorlari, xususan, jadidlar Navroʻzni nishonlashga, undan bahra olib, huzurbaxsh an'analarini davom ettirishga, yangicha hayotga erishishga barchani da'vat etib kelishdi.

